

HARBIY VATANPARVARLIK FAZILATINING AXLOQIY MEZONLARI

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

godirovsamandar07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy jangovor axloqiy qadriyatlar mardlik, jasurlik, qo'rqmaslik, qahramonlik, botirlik, kuchlilik, shuhratsevarlik, mardonavorlik, bardoshlilik, dovyuraklik va boshqa ijobiy jihatlar haqida hamda Yoshlarni harbiy vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlari haqida yoritilgan. Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini - yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizasiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash – Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko'z qorachig'iday asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi

Kalit so'zlar: mardlik, jasurlik, qo'rqmaslik, qahramonlik, botirlik, kuchlilik, shuhratsevarlik, mardonavorlik, bardoshlilik, dovyuraklik, fidoiylilik, masuliyatlilik, sadoqat, g'urur.

Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlikning asosini - yurt tinchligi belgilab beradi. Bugungi tahlikali zamonda Qurolli kuchlarimiz qudratini oshirish, milliy armiyamizni modernizasiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash – Vatanimiz sarhadlari daxlsizligini ko'z qorachig'iday asrash ushbu metodologiyaning asosiy sharti va kafolati hisoblanadi. Bu shartning axloqiy mohiyati quyidagi jihatlarni taqozo etadi.

Harbiy-jangovar axloqiy qadriyatlar sirasiga mardlik, jasurlik, qo'rqmaslik, qahramonlik, botirlik, kuchlilik, shuhratsevarlik, mardonavorlik, bardoshlilik, dovyuraklik va boshqa ijobiy jihatlar kiradi. Harbiy faoliyat axloqiy qadriyatlarining uning asosiy jabhalarda namoyon bo'lishiga ko'ra, cheklanishi shartli sanaladi, binobarin ushbu axloqiy qadriyatlar asl voqe'likda yagona jarayonning turli taraflaridan ishtirok etgani holda, butun harbiy faoliyatga singib boradi.

Fidoiylilik- Fidoiylilik harbiy vatanparvarlik fazilatining muhim axloqiy mezoni bo'lib, u o'z vataniga, xalqiga, tanlagan yo'li, maslagi, g'oyasiga xizmat burchiga sodiqlik hamda unga o'zini baxshida etishdir. Fidoiylilik insonda katta yurak, g'ayrat-shijoat, eng muhimi, o'ziga, o'zining kuch-qudratiga mustahkam ishonch bo'lishini taqozo etadi. Harbiy xizmatchining vatanparvarligi har kuni, har soatda fidoiy



bo'lishni, o'zini buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirishni talab etadi.

Sadoqat- Bu fazilat Vatanga, xizmat burchiga sodiqlik hamda hamjihatlik, birdamlik va do'stlikni qadrlash orqali namoyon bo'ladi. Sadoqat, ayniqsa harbiy xizmatchilarning Vatanga sadoqati bag'ri keng, halollik, vijdonlilik, oqibatlilik, yurt tashvishi bilan yashashi pirovardida jamiyat taraqqiyotidagi o'rni bilan bog'liq qarash va bilimlarni shakllantiradi. Ularning axloqiy jihatdan el-yurtga sadoqat ruhida kamol topishi va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shishlari bilan belgilanadi.

G'urur-Bu fazilat xalq va millatning muvaffaqiyati, sha'ni, yutuqlari, qadriyatlaridan faxrlanish tuyg'usi orqali reallikka aylanadi. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar o'rtasida millatning buyuk o'tmishi farovon kelajagi borligi unga bo'lgan ishonch vatanga bo'lgan ishonchligini anglatish, milliy g'urning shakllanishi o'zlikni anglashda namoyon bo'lishi hamdir.

Oriyat- Bu o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmaydigan ish, narsa, so'z, xatti-harakatdan tiyilish, xijolat tortish, uyalish; o'z izzat-nafsini himoya qilmoq, obro'ni qo'ldan bermaslik.

Harbiy vatanparvarlik fazilatlarini ushbu mezon-tushunchalarning o'zaro uzviyligi va uzluksizligi asosida shakllanadi, rivojlanadi. Bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, xalq og'zaki ijodiga, milliy va jahon adabiyotining nodir durdonalariga, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodiy merosiga tayanadi.

Bundan tashqari, harbiy vatanparvarlik fazilati jasurlik, daxldorlik, davlat siyosatiga hayrixoxlik singari ezgu fazilatlar asosida ham shakllanib boradi. O'z navbatida, ularning har biri o'z tarkibida bir qancha xususiyatlarni birlashtiradi. Jumladan:

Jasurlik- Vujudida engilmas kuch-qudratni his etish, jasur degan nomga ega bo'lmoqqa intilish, o'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik kabi fazilatlarini insoniylik burchi darajasiga ko'tarish bilan bog'liq qarash va bilimlarni shakllantirish. Adolatni hamma narsadan ustun deb bilish, tarix va kelajak oldidagi mas'uliyatni his etadigan, haqiqiy vatanparvar va mard inson bo'lishidir.

Daxldorlik-Vatan taqdiriga, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabatini tubdan o'zgartirish, yuksak ma'naviy fazilatlar, demokratik



qadriyatlarni mustahkamlashga, keng ko'lamli yangilanishlarga daxldorlik, mamlakatimiz kelajagiga bo'lgan ishonch hissini shakllantirish. Bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashni taqozo etmoqda.

Davlat siyosatiga xayrixohlik- Qudratli davlat barpo etishda fuqarolik burchini his etish, davlat siyosatini amalga oshirishda faol ishtirokchi bo'lishdan iborat. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor maqsadi odamlarimizning ana shunday orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, xalqimizga har tomonlama munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iborat.

Yuqorida ko'rib o'tganlarimiz harbiy vatanparvarlik fazilatining tarkibiy qismini tashkil etuvchi axloqiy tushunchalar "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy Nizomi"dagi "Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari" mazmun-mohiyatiga ko'ra, axloqiyliigi bilan e'tiborlidir. Ayniqsa, 13-bandda ko'rsatib o'tilgan majburiyatlari - "harbiy qasamyodga sodiq qolish, o'z xalqiga fidoiylarcha xizmat qilish, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va hududiy butunligini matonat, mahorat bilan, o'z so'nggi tomchi qoni va hatto hayotini ayamadan himoya qilish, O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bo'yicha vazifalarni bajarish bilan bog'liq harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidash" kabilar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli Qarori.
2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: 2017
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.- B.149.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir



6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent: O‘zbekiston
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22 dekabr 2017 yil)
9. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston,
11. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2021
12. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. –Toshkent: Ma'naviyat, 1998. T.
13. Abdulla Sher. Axloqshunoslik - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati
14. Abdullaev R.I. Psixologiya operasialari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU
15. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. -Toshkent Tafakkur,
16. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy Nizomi

